

## AYZEKSONNING “STIV JOBS” ASARI HAQIDA MULOHAZALAR (Meditation on Walter Isaacson's Biographical Novel Steve Jobs)

**Omonova Gulzoda Rustam qizi**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti  
universiteti, O'zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi

[gulzoda\\_amanova@gmail.com](mailto:gulzoda_amanova@gmail.com)

### **Annotation.**

This article discusses the artistic features of a biographical novel written by Walter Isaacson about the world-famous Apple co-founder Steve Jobs. Conclusions are given on some aspects of it.

### **Keywords:**

Walter Isaacson, novel "Steve Jobs", artistic features.

### **Annotatsiya.**

Mazkur maqolada dunyoga mashhur “Apple” kompaniyasi asoschisi Stiv Jobs haqida Uolter Ayzekson yozgan biografik romanning badiiy xususiyatlari haqida fikr yuritiladi. Uning ayrim jihatlari haqida xulosalar beriladi

### **Kalit so'zlar:**

Uolter Ayzekson, “Stiv Jobs” romani, badiiy xususiyatlari.

Jahonga mashhur – bestseller asarlarning ko'p foydali jihatlari bor. Bunday asarlardan ko'p fazilatlarini o'rgansa bo'ladi. Taniqli adib Ayzekson qalamiga mansub “Stiv Jobs” biografik romani XX asr ikkinchi yarmi XXI asr boshlari dunyoda eng mashhur komputer daholaridan biri – Stiv Jobs haqida juda muvaffaqiyatli va o'qishli roman yozgan. O'zbek shoiri, jurnalisti va tarjimoni Karim Bahriyev Uolter Ayzeksonning ajoyib biografik romanini mahorat bilan o'zbekchaga tarjima qilgan. Men asardagi juda ko'plab qiziqarli fakt va ma'lumotlar orasida ayrimlariga to'xtalmoqchiman. Masalan, Stiv Jobsni o'qishga, ilm olishga qiziqtirgan ison – ustoz miss Xill shubhasiz daho inson kamolotida eng muhim bir ishni bajargan. Shu inson tufayli unda maqsad sari qat'iy intilish va xarakter xususiyatlari qat'iylashgan. “Miss Xill katta konfetni ko'rsatib, hamma vazifani qilib kelsam, uni menga sovg'a qilishini va yana besh dollar qo'shib berishini aytdi. Ikki kun o'tib, men unga vazifalar bajarilgan daftarni tutqazdim. Bir necha oy o'tib, sovg'a va pullarga ehtiyoj qolmadi...” [1. Uolter Ayzekson. “Stiv Jobs”, 27-bet].

Azaldan davom etib keladigan tuganmas bahslardan biri – e'tiqod masalasi. Bu to'g'ridagi muammo hech qachon tugamaydi. Qiziq tomoni Stiv Jobs mustaqil – qat'iy, o'z so'zli daho bo'lganidan dohiyona bir fikrni ilgari surgan: “Menimcha, barcha dinlar ayni bir uyga olib boradigan har xil eshiklardir”. (29-bet). Kashfiyotchilikda, ixtirochilikda his-tuyg'u katta ro'l o'ynaydi, buning uchun Arximedning “Evrika!” hayqirig'ini eslash kifoya. Stiv Jobs ham shuni qayd etadi: “Intuitiv bilish abstrakt fikrlash va mantiqiy tahlil qilishdan ancha muhim ekanini tushuna boshladim” (50-bet).

Boshqa bir o'rinda mashhur ixtirochi hayotida muhim o'rin tutgan ikki qarama-qarshi g'alati haqiqatni ro'y-rost tan oladi: “Biz dzen (buddizm-G.O) va LSD (g'yohvandlik-G.O) g'oyalari bilan katta bo'ganmiz. Psixoaktiv moddalar hayotimda muhim rol o'ynadi. Huzur olayotib, medalning orqa tomoni ham borligini tushunasan, to'g'ri, uni ta'siri tugagach, hech narsani eslolmaysan. Psixoaktiv moddalar ijod qilish va nodir narsalarni kashf qilishdek muhim maqsadlarni aniqlab olishimga yordam berdi.” (57-bet). Har bir inson dunyoda baxtni o'zicha tushunadi. Bu haqda Stiv Jobsga yoqqan fikrlar mashhur Buddha so'zlari bilan hamohang: “Vodsvort: tong yorug'ini ko'rishni o'zi baxtdir; lekin yoshlarning baxtiyorligi undan-da yuksak baxtdir” (85-bet). “Buddaning mashhur so'zini bot-bot eslar edim: “Inson har qancha baxtsiz bo'lsayam, yorug' olamni ko'rib turganidan

xursand bo'lishi kerak. Chunki uni ko'rmasligiyam mumkin edi" [2. Shukur Xomirzayev. "Bulut to'sgan oy", 415-bet]. Insonni maqsadga og'ishmay intiladigan qilib tarbiyalaydigan g'oyalar bo'ladi. Ayzekson bunday fazilatlar orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatadi: "Jobsning otasi doim, mayda-chuyda detallar borasida ham mukammallikka intilish kerak deb o'rgatgandi." (91-bet). Yoki: "O'zimiz shug'ullanayotgan maqsadga o'z vaqtida yetishish uchun barcha ikkinchi darajali maqsadlarni miyadan chiqarib tashlash kerak". (95-bet) "U o'zi o'ylagan narsalarni ro'yobga chiqarishga ulgurish uchun shoshilish kerakligini doim his etardi". (285-bet). Yana: "Redse: Beparvolik – tahqirlashning bir shaklidir". (286-bet) Ulug' dahoning bir ajib fazilati ham e'tiborga molik: "Jobs agar xohlasa, odamlarni qiziqtirib yo'ldan urishi va o'ziga maftun qilishi mumkin edi. U yomon ko'rgan odamini o'ziga shaydo qilib qo'yishni bilardi" (334-bet).

Biografik roman afzalliklaridan biri shuki, u real omillarga tayanadi. Bunda bo'rttirish, bo'lmaganni bo'lgandek qilib tasvirlash deyarli uchramaydi. Shunisi bilan ham bunday asarlar ahamiyat kasb etadi. Ayzeksonning ushbu kitobiga juda ko'plab sharhlar va munosabatlar bildirilgan. "Bu kitobni nima uchun o'qish kerak? Didni his qilish va o'stirish uchun" [3. Layvlib eksperti]. "Kitob shunday mahorat bilan yozilganki, uni muhabbat bilan o'qiysiz" (3. Kseniya Ustinova). "Hatto uch karra dohiy ham bir o'zi industriyani siljitolmaydi. Boshqacha aytganda, Ayzekson eslatmasi bo'yicha fanni o'rganamiz, san'atni sevamiz va o'zaro fikr-muloqotda birlashamiz" (3. Dmitriy Polozkov).

"Biografik metod yozuvchi va badiiy asar juftligiga asoslanadi. Ijodkorning shaxsiy hayotiga, yashagan muhitiga, ruhiy-psixologik holatiga shaxsiy qiziqishlariga, asarni yozishga turtki bergan ilhom faktorlariga, ijodkor laboratoriyasiga va shu kabi qator tarixiy-individual masalalarga jiddiy e'tibor beradi". [4. Bahodir Karim. "Ruhiyat alifbosi", 166-bet]. "Biografiya – san'at asari mohiyatini ochishga xizmat qiladi, dahoning ma'naviy-axloqiy qiyofasini, aql-tafakkurini anglashga yordam beradi. Va nihoyat, noyob biografik kuzatishlar ijodkor va ijod jarayonini tizimli o'rganishga boy materiallar berishi bilan ham ahamiyatlidir" [5. R. Uellek va Uorren. Adabiyot nazariyasi, 89-bet].

Xulosa qilib aytganda, o'zbek tarjima adabiyoti yana bir ajoyib, o'qishga munosib asar bilan boyiganini e'tirof etish joyiz. Mutarjim Karim Bahriyev tufayli o'zbek kitobxonlari XX va XXI asr raqamli iqtisodiyotning eng mashhurlaridan, dunyo komputer daholaridan biri – Stiv Jobsning boy hayotiy yo'li bilan yaqindan tanishadilar. Bu tanishuv – unutilmas taassurotlarga boy bo'ladi, - deb ishonamiz.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Уолтер Айзексон. "Стив Жобс" (Биографик асар) Тошкент, "Нил-нашр". 2019. – 720 б.
2. Холмирзаев Ш. Сайланма. II жилд. Ҳикоялар. "Sharq" NMAK, 2005. – 464 б.
3. [www.livelib.ru/review/1567-stiv-dzhobs](http://www.livelib.ru/review/1567-stiv-dzhobs)
4. Баҳодир Карим. Руҳият алифбоси. Т.: Ғафур Ғулум номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2016. – 364 б.
5. Уэллек Р, Уоррен О. Теория литературы. М.: "Прогресс". 1978. – 328 с.